



## ISH VAQTI TUSHUNCHASI, MAZMUNI, TURLARI VA AHAMIYATI

**Z.R.Allambergenova – Berdaq nomidagi  
Qoraqolpoq Davlat Universiteti Yuridika fakulteti  
2-kurs talabasi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqola ish vaqtini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda ish vaqt tushunchasi, ish vaqtining turlari, normal, qisqartirilgan va to'liqsiz ish vaqt, ish vaqt rejimi kabi mavzular yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ish vaqt, ish vaqtini tartibga solish, qirq soatlik ish haftasi, ish vaqtining qisqartirilgan muddati, ish vaqtining normal muddati, ish vaqt rejimi.

Ish vaqt tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 181-moddasida belgilab qo'yilgan. Ish vaqt deb xodim ish tartibi yoki grafikiga (jadvaliga) yoxud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lган vaqt hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga asosan ish vaqtining quyidagi turlari mavjud: ish vaqtining normal muddati, qisqartirilgan muddat, to'liqsiz ish vaqt.

Ish vaqt muddati haqida 1935-yil 21-iyunda "Qirq soatlik ish haftasi to'g'risidagi" Jeneva Konvensiyasi qabul qilingan va shu konvensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 6-maydagi 83-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining 1935-yil 21-iyunda Jenevada qabul qilingan Ishning davom etish muddatini haftasiga qirq soatgacha qisqartirish to'g'risidagi 47-Konvensiyasiga qo'shilishi haqida"gi qaroriga asosan qo'shilgan va bu 1992-yil 13-iyulda kuchga kirgan. Va shunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga binoan, xodim uchun ish vaqtining normal muddati olti kunlik ish haftasiga ham, besh kunlik ish haftasiga ham ish vaqt haftasiga qirq soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Ayrim toifadagi xodimlar uchun ularning yoshi, sog'ligi, holati, mehnat sharoitlari, mehnat vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zga holatlarni inobatga olib, mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjalarga muvofiq mehnatga to'lanadigan haqni kamaytirmasdan, ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi.

Bu xodimlar ro'yxatiga, mehnat qonunchiligiga muvofiq, o'n sakkiz yoshga to'lman, I va II guruh nogironligi bo'lган, uch yoshga to'lman bolalari bor, byudjet hisobidan moliyaviy jihatdan ta'minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda



ishlayotgan ayollar, noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo'lgan ishlardagi xodimlar kiritilgan.

To'liqsiz ish vaqtি to'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasini qamrab oladi. Xodimning mehnat rejimi ish kuni muddati hamda haftadagi ish kunlari soni kamaytirilishini nazarda tutilgan bo'lsagina, to'liqsiz ish vaqtি hisoblanadi. To'liqsiz ish vaqtি davrida ish vaqtি muddatining normasi kamayadi, ya'ni xodim mazkur korxonadagi ichki tartib yoki ish jadvalida belgilab qo'yilgan vaqtidan kamroq vaqt ishlaydi.

To'liqsiz ish vaqtি mehnat shartnomasi taraflarining kelishuviga binoan belgilanadi. Ish vaqtি to'liqsiz deb sanalishi uchun uning muddati aniq qancha soatga kamaytirilishi qonun hujjatlarida belgilab qo'yilmaganligi sababli, ish vaqtining muddati teng yarmiga, uch, ikki soatga yoki undan ham kamroq muddatga, umuman qanchaga kamaytirilishidan qat'iy nazar, barcha hollarda to'liqsiz ish vaqtি deb hisoblanadi.

2001-yil 30-dekabrda qabul qilingan Rossiya Federatsiyasi Mehnat Kodeksida ham ish vaqtি va uning turlari ko'rsatilgan bo'lib, uning 15-bob, 91-99-moddalarida umumiyligi ta'rif berilgan. Mazkur kodeksning 94-moddasiga binoan, kundalik ishning (smenaning) davomiyligi quyidagilardan oshmasligi kerak:

- o'n to'rt yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan xodimlarga – 4 soat, o'n besh yoshdan o'n olti yoshgacha – 5 soat, o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha – 7 soat;

- umumiy ta'lif yoki o'rta kasb-hunar ta'limi oladigan va o'quv yili davomida ta'limni mehnat bilan birlashtirgan shaxslar uchun o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha – 4 soat;

- nogironlar uchun – federal qonunlar va Rossiya federatsiyasining boshqa normativ hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan tibbiy ma'lumotnomaga muvofiq belgilanadi.

Qisqartirilgan ish vaqtি belgilangan zararli va xavfli mehnat sharoitlari bo'lgan ishlarda ishlaydigan ishchilar uchun kunlik ishning (smenaning) ruxsat etilgan maksimal davomiyligi:

- 36 soatlik ish haftasi bilan – 8 soat;
- 30 soatlik yoki undan kam ish haftasi bilan – 6 soat.

Mehnat huquqida ish vaqtি rejimi deganda xodimlar uchun belgilangan ish vaqtি muddatining muayyan kalendar davr (sutka, hafta, oy va shu kabilar) doirasidagi taqsimoti tushuniladi.

Ish vaqtি rejimi tushunchasi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: kundalik ish vaqtining (smenaning) muddati, ishning boshlanish va tugash vaqtি,



ishdagi tanaffuslar vaqtin, sutka davomidagi smenalar soni, ish kunlari va ishlanmaydigan kunlarning navbat bilan almashinishi, xodimlarning smenadan smenaga o'tish tartibi, korxonada ishchi mehnat tartibi qoidalari va boshqalar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson mehnat faoliyatining barcha sohalaridagi ish vaqtini va dam olish vaqtini huquqiy jihatdan to'liq tartibga solish murakkab va tartibga solib ham bo'lmaydi. Mehnatga oid bo'lgan munosabatlar mehnat shartnomasi asosida yuzaga kelgan hollardagina ish vaqtini hamda dam olish vaqtini huquqiy jihatdan tartibga solish zarur bo'ladi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi 30.04.2023
2. Rossiya Federatsiyasi Mehnat Kodeksi 13.06.2023
3. Inoyatov A. O'zbekiston Respublikasining mehnat huquqi. Darslik. – Т.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashryoti, 2002. -384 b.
4. Gasanov M.Yu., Sokolov E.A. O'zbekiston Respublikasida Mehnat shartnomalari. O'quv qo'llanma. – Т.: O'qituvchi, 1999. 528 b.
5. Трудовое право. В 2-х т. Т.2. Общая часть. учебник для бакалавриата и магистратуры // Отв. ред. Ю.П. Орловский; ред.-сост. Е.С.Герасимова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Изд-во:Юрайт, 2017.
6. Смирнов О.В., Снегирева И.О., Гладков Н.Г. Трудовое право. Учебник. 5-е изд.-М.:РГ-Пресс,2018.
7. Usmonova M.A., B.Iraylov. Mehnat huquqi. O'quv-uslubiy majmua. – Т.: TDYU, 2011. 462 b.
8. <http://www.lex.uz>
9. <http://www.ziyonet.uz>